

**ASAD DILMURODNING “FANO DASHTIDAGI QUSH” ROMANIDA  
BADIY USLUB TAHLILI.****Toirova Zubayda Omongaldiyevna***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch  
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,**Urganch Ranch texnologiya universiteti**“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasida o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Asad Dilmurod tomonidan yaratilgan “Fano dashtidagi qush” romanining badiiy uslubi tahlil qilinadi. Asar badiiy shakl va mazmun jihatdan falsafiy chuqurlik, ichki tafakkur oqimi va obrazli til vositalarining uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda muallifning poetik mahorati, ramziy obrazlar yaratishdagi yondashuvlari, psixologik tahlil usullari, badiiy tafakkurning ifodasi sifatida til va uslub masalalari markazga olinadi. “Fano dashtidagi qush” romanida badiiy uslub masalalari adibning fikriy-estetik dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq. Asarda tasviriy vositalarning serqirraliligi, tilning poetikligi, falsafiy qatlamlarning chuqur ifodasi romanning badiiy uslubini boyitadi. Muallif hayot va o‘lim, insoniylik va fano, ruhiyat va ma’naviyat kabi murakkab mavzularni badiiy-falsafiy yo‘sinda yoritishda o‘ziga xos lirizm, ramziylik va ichki monologlar orqali obrazlar dunyosini ochib beradi.

**Kalit so‘zlari:** roman, ramziylik va ijodiy individuallik, tasavvufiy timsollar, tush motivi, asar kompozitsiyasi, konsepsiya, modus, badiiy to‘qima.

**Abstract.** This article analyzes the artistic style of the novel “Bird in the Steppe of Fano” by one of the great representatives of Uzbek literature, Asad Dilmurod. The work is distinguished by its philosophical depth, flow of inner thought, and harmony of figurative language means in terms of artistic form and content. The study focuses on the author’s poetic skill, approaches to creating symbolic images, methods of psychological analysis, and issues of language and style as an expression of artistic thought. Issues of artistic style in the novel “Bird in the Steppe of Fano” are closely related to the writer’s intellectual and aesthetic outlook. The diversity of figurative means, the poetics of language, and the deep expression of philosophical layers in the work enrich the artistic style of the novel. The author reveals the world of images through his unique lyricism, symbolism, and internal monologues in illuminating complex topics such as life and death, humanity and extinction, spirituality and spirituality in an artistic and philosophical way.

**Keywords:** novel, symbolism and creative individuality, mystical symbols, dream motif, composition of the work, concept, mode, artistic texture.

**Абстрактный.** В статье анализируется художественный стиль романа «Птица в степи Фано» Асада Дилмурода, одного из выдающихся представителей узбекской литературы. Произведение отличается философской глубиной, внутренним течением мысли, гармонией образного языка с художественной формой и содержанием. В исследовании рассматриваются поэтическое мастерство автора, подходы к созданию символических образов, методы психологического анализа, а также вопросы языка и стиля как выражения художественной мысли. В романе «Птица степи Фано» вопросы художественного стиля тесно связаны с интеллектуально-эстетическим мировоззрением писателя. Богатство образного языка, поэтичность языка, глубокая экспрессия философских пластов обогащают художественный стиль романа. Автор раскрывает мир образов посредством уникального лиризма, символизма и внутренних монологов, освещая в художественной и философской манере такие сложные темы, как жизнь и смерть, человечество и вымирание, духовность.

**Ключевые слова:** роман, символизм и творческая индивидуальность, мистические символы, мотив сна, композиция произведения, концепция, мода, художественная фактура.

XX asr adabiyotida ruhiy-ijtimoiy sarzanishlar odam irodasini sinovdan o'tkazishi, yangidan-yangi metaforalarning "kashf" etilishiga keng imkon berdi. Albert Kamyu, Jeyms Joys, Somerset Moem va shu kabi G'arb adabiy an'alarining sezilarli ta'siri natijasida o'zbek romanchiligida yangidan-yangi tasvir ekzislari paydo bo'la boshladi. An'anadan – noan'anaga o'tish, badiiy to'qimalar olamida yangi bir universal olam odamlarininng xarakterini ochib berish uchun kamida jahon adabiyotini bilish emas, mumtoz adabiyot mahsullari bilan ham yaqindan tanishish lozimligini dalolatlaydi. Pirovard natijada, adiblarning falsafiy-psixologik tasvir mahoratini ilg'ashda qiyinchiliklar va murakkab situasialarga ro'baro' kelish hech gapmas! Hayotning maromdagi harakati fasllar izchilligi, bahor, yoz, kuz va nihoyat qishning izg'irinli kunlarini yodimizga solsa, inson umrining to'rt faslga bo'lib taqqoslagan Alisher Navoiydek hazratninng devonlari-yu, dostonlarida komillik sari intilish moduslarini tartiblashtiradi. Ana shu jarayonning tirik shohidi bo'lishga, o'zligini bilib, NAFSni jilovlashga kirishgan zotki bor, o'z semrug'larini izidan ergashtirib, oltin vodiylarni zabt etishi turgan gap.

Asad Dilmurodning "Fano daashtidagi qush" romanida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, yozuvchi o'zidan oldin yashab, ma'rifat nurini biz avlodlarga meros tariqasida tortiq qilgan Jaloliddin Rumiy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar yoziqlaridan bir go'zal o'qirman uchun roman tartib beradi. Romanninng an'anadan – noan'anaga o'tish

modusini shu qadar chigal soʻqmoqlarda konsepsiyaga yoʻgʻradiki, natijada, yozuvchining hech kimga oʻxshamagan tasvir uslubini qayta-qayta va diqqat bilan mutolaa qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Adibning yana bir romani I.Yoqubovning “Badiiy matn va estetik talqin” risolasida yaxlit monografik yoʻsinda oʻrganilmagan. Aynan “Fano dashtidagi qush” romanida Saidbek Umar obrazini qay tariqa yuzaga chiqarganini, asardagi xayoliy-romantik, mifologik lavhalarining nechogʻli haqiqatga monandligini qiyosiy oʻrganish asnosida ochiqlash mumkin. I.Yoqubov “Fano va baqo oraligʻida” maqolasida “Fano dashtidagi qush” (2002) romanidagi Boʻztoy bilan “Rang va mehvar”dagi boʻzbola Kamron ikkisini qiyosan tadqiq qiladi. Roman ifoda mustaqilligi bilan I.Sultonning “Ozod” (2011) romanidagi Ozod obrazini ham yodimizga soladi. Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy singari mutafakkir adiblarimizning ijodida ilhomlanganligi shundoq tasvirlanayotgan imo-ishoralar, nozik oʻxshtishlarda yaqqol seziladi. Asar qahramoni Saidbek Umarning xotiralari Yodgor bilan muloqot negizida qayta jonlilik kasb etib, parchalangan shaxs oʻzini hayotini ruhiy zoʻriqishlar orqali anglab yetadi. Alisher Navoiyning

“Bu gulshan ichraki, yoʻqdur baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot”

mazmunidagi hikmatidan taʼsirlanish yozuvchini dunyoning oʻtkinchi hoyu-havaslaridan boqiylikni faqat yaxshi nom chiqarish evaziga egallash muhimligini nazarda tutgan boʻlsa ajab emas. Chunki mana shu xususiyat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida mavjud boʻlib, Asad Dilmurod Saidbek Umar ruhiyatini ana shu tamoyil, konsepsiya negizida ochib berishga erishgan. Prof.I.Yoqubov qayd etishicha: “Roman voqealari va qahramonlar xatti-harakatlari goh-goh boshqa oʻlchamlardagi olamlarga, xususan, reallikdan yiroq xayoliy Saodat mamlakatiga koʻchadi. Bunday lahzalarda ham qahramonlarni oʻzaro inoqlik va qatʼiyat, insoniy mehr-muhabbat, ertadan umidvorlik, sifatlari goʻzallashtirib turadi. Mashaqqatlarga bardoshli bu bandalar pirovardida Buyuk qudrat egasi tomonidan munosib taqdirlanadilar. Ruhiy evrilish bosqichini oʻtagan Saidbek Umar bundan teran qoniqish tuyadi, fano va baqoning oʻzaro payvastaligi ham aslida Yaratgan egamning qudrati nishonasi ekanligini anglab masrur boʻladi”.[9.94.] Koʻrinadiki, Saidbek Umar ruhiyatidagi uzil-kesil oʻzgarishlar oʻzi yashab turgan ona tuproq, Yaratganga itoatkor boʻlish, azal va abad orasida kechuvchi ziddiyatlar, adashishlar, ayriliqlar-u topshishlarning barchasi qahramon koʻnglida birlashib, mazmun kasb eta boradi. Fano – tushunchasini Asad Dilmurod tasavvufiy timsollar tilida Yodgor ongida roʻy berayotgan oʻsish-oʻzgarishlar negizida ham tahlil qiladi. U barcha sir-bilimlarni yetkazuvchi maslakdosh sifatida roman toʻqimalaridagi falsafiy, ilohiy gʻoyalarni tushuntiruvchi obraz boʻlib, syujetga alohida mavqe kasb etadi.

“Ruh raki”, “Charxpalak”, “Sumalak zardobi” loyihalarga bosh-qosh bo‘lishda Shahobiy, Po‘lat Qosimiy, Bo-bosh nomli kashfiyotni favqulodda bir yangilik deb, e‘lon qilishadi. Biroq Saidbek Umar ich-ichidan yemrilib borayotgan o‘tkinchi havaslaridan balandga ko‘tarilish choralari izlaydi. Adibning ilk hikoyalari – qahramonlar “Yortilik qonuni”dan sinovdan o‘tilardi. “Ko‘chki” dagi Mahma, “Xufton”dagi Pardaboylar ham Saidbek Umar kabi qahramonlarning ilk asosi. Ularning xarakterida sodir bo‘layotgan o‘rish-o‘zgarishlar, tuban inqirozlar, fojeliq, mutelik, qaramlik jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa bilmaslik bilan o‘quvchini o‘ylashga undaydi.

Romanning qator kompozitsion ustqurmasi va badiiy g‘oyasi haqida so‘z yuritish ekan, munaqqid ikki jihatni yanada teran talqin qilish borasidagi qarashlarini uyg‘unlashtirish lozimligiga mantiqiy urg‘ulaydi: birinchidan, romanning mumtoz alloma yoki mutafakkirlarning din va dunyoviy ilmlarni egallagan musulmon, chin taqvoli inson e‘tiqodi hamisha zafar qozonishini, ikkinchidan, bunday odamlar jamiyatda hamma zamonlarda ta‘qib va iztiroblar bilan kun kechirishini, sinovlarning ketma-ket kelishi, nafsni yengish maslagida turli xil bo‘htonlar-u g‘iybatlarga duchor bo‘lishini alohida uqtirib o‘tadi.

XX asrning eng yovuz aqidalaridan biri bu – manqurtlik falsafasidir. Chingiz Aytmatovning o‘tgan asrda olib kirgan bu mavzusi sobiq ittifoq davrida katta shov-shuvlarga sabab bo‘lsa ham, uni tushunganlar uchun real voqelikning o‘zginasi sifatida tarix zarvaraqlarida muhrlandi. Mana shu mavzu tegrasida Ch.Aytmatov shunday o‘tkir falsafiy fikrlarini bayon qiladi: “Asrni qaritgan kun” romanimni yozishdan avval manqurtchilik mavzusini juda sinchkovlik bilan o‘rgandim. Bolaligimizda biror ishni noto‘g‘ri bajarsak yoki nojo‘ya xatti-harakat qilsak: “Nima balo, manqurtmisan?!” degan tanbehni ko‘p eshitish edik. To‘g‘ri, qaysi chegaradan so‘ng inson bevosita manqurtga aylanishini aniq bilmasdik. Lekin ich-ichimizdan his etardikki, bu so‘z juda yomon haqorat hisoblanardi. Bundan o‘n asr muqaddam kuylangan va o‘shandan buyon qahramonlik, vatanparvarlik qomusi bo‘lib kelayotgan qirg‘izlarning “Manas” eposida ilk bora manqurtchilik to‘g‘risida guvohlik berilgan. Eposda shunday parcha bor: kichkintoy Manas asov kuchga ega, jangari bo‘ladi. Bundan tashvishga tushib qolgan mahalliy hokimlar pinhona til biriktiradilar. Ya‘ni, kelajakda Manas xalq yo‘lboshchisi bo‘lmisligi uchun uni yoshligida manqurtga aylantirib qo‘ymoqchi bo‘ladilar: *Bolani asirga olaylik, boshiga xom terini yopishtiraylik. So‘ng, yurtimizga eltib qurg‘urni olti aymoq qalmaq eliga bir bo‘lib, boplab adabini beraylik!*” [2.153.] Mana shu iqtibosdan ko‘rishimiz mumkinki, haqiqatdan ham, bu an‘ana eng qadimgi davrlarga borib taqalashini, Afrika, Avstarliya va boshqa davlatlarda, rivojlanishga, o‘rishga, kamolotga yuz tutgan oddiy inson tafakkurini, irodasini, istiqbolini paymol qilishga yo‘naltirilgan maafur, yovuz kimsalarning, jaholatga mukasidan ketgan siyosatdonlarning, soxta olimlarning, zulmkorlarning qabih ishlari natijasida yuzaga

kelgan eng kattta gunohlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mana shu tariqa har bir inson o'zining kelajagini chuqur o'ylab ish qilmog'i, komolot sari intilib yashamog'i muhimligi ayonlashadi.

Yozuvchi Asad Dilmurod "Fano dashtidagi qush" timsolida Rumiy, Navoiy an'analarini qayta tiklab, Saidbek Umar qiyofasida o'ziga xos tarzda milliy adabiyotimizning arixtektonikasiga jiddiy o'zgarish kiritganligini dalolatlad: "Nimasi bilandir ko'nglini alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan o'sha hodisani unutilmasligiga esa bir g'alati tush sababchi: emishki, avji bahor, yashillik bosqini, maysa va gul-chechaklar majlisi, ko'kda qushlar chappor urib xonish qilar, attangki, bir mahal tepada bulut to'dalanib, beadam sel yog'ilar. Ne hol? – U qup-quruq, o'g'li Fuzayl esa shalabbo, sovg'otgan, O'g'lini kamzuliga o'rab, qo'yniga tortmoqchi bo'ladi, ammo u unamay g'uldiraydi: meni ushbu isitadi! Ovozini guldarak bosib ketgani uchun Saidbek Umar hech narsani tushunmaydi, faqat uning qo'lida chaqmoq shu'lasida yaltirayotgan va nimasi bilandir kishini oshufta etadigan bir tizim bo'ri tishini ko'radi".[1.7]

Roman ekspozitsiyasidagi tong va tush motivi Saidbek Umarning ruhiy-ijtimoiy kechinmalarini ifodalashga qaratilgan ekan, shu birgina mavhum tush girdobiga g'arq bo'lgan voqelikni hech hazm qilolmay ancha vaqt ikkilanib yuradi. Tushning shaytoniy va rahmoniy shakli, Saidbek Umar kelajagidagi mislsiz yog'iyar soladigan iztiroblardan – bo'rining tirnog'i timsolida real mohiyat kasb etmoqda. Shak-shubhasiz tush ilmi bilan shug'ullangan XX asr nemis faylasufi Erix Fromm shunday yozadi: Bashorat beruvchi ko'p tushlar hech qanday telepatiyasiz ham to'g'ri chiqadi. Shunday karomatli tushlardan biri Yusuf alayhissalom ko'rgan tushdir. Yusuf alayhissalom bir kun tush ko'rib, uni ukalariga aytib beradi: "Tushimda bizlar ekinzorda bug'doylarni g'aram qilib bog'layotgan ekanmiz. Qarasam, men bog'layotgan g'aram yerdan ko'tarilib, tik turgan ekan, sizlar bog'lagan g'aramlaringiz esa davra olib, mening g'aramlarimga ta'zim qilayotganmish". Yusufning akalari unga: "Nahotki, sen bizning ustimizdan podshoh yoki hukmron bo'lmoqchisan?" – deyishadi. Ko'rgan tushi va aytganlari tufayli uni yanada yomon ko'rib qolishadi".[3.72-73] Bu iqtibosdan ma'lum bo'ladi, o'z ichki "men"i bo'lsa-yu, uning qat'iy bir qarorga kelishiga yetadigan fahm-u idroki bo'lmasa shaxs mutelik va qaramlik botqog'iga sekin-asta bota boshlaydi. Romanning kompozitsiyasi ana shu tariqa Saidbek Umar taqdirini o'zgartirib yuborishga qodir, shubha va gumonlar iskanjasida xayol surishga yetaklaydigan – **tush motivi** bilan boshlanadi. Saidbek Umar tushi orqali qandaydir gallyutsinatsiyaga duchor bo'lgan obrazni yodimizga soladi. Chunki u iroda va matonat nuqtai nazaridan ko'p masalalarda xayol og'ushida, tizginsiz iztiroblar qurshovida hayot kechiradi. Bu haqda so'z borganda: "Gallyutsinatsiya aslida tibbiyotga daxldor atama. U ruhiy kasallikning bir turi. Internet ma'lumotlariga ko'ra ilk bor bu atama 1938- yil fanda qo'llanilib boshlangan. Hayotidagi kuchli iztirob,

dard-alam tufayli bemorda gallyutsinatsiya holati yuzaga kelib, uning ruhiyati izdan chiqadi. Meditsinaga doir adabiyotlarda qayd etilishicha, mazkur kasallik bemorlarda turlicha holatda zuhur bo'ladi. Jumladan, eshitish, ko'rish va ta'm bilish orqali gallyutsinatsiyaga uchrash mumkin. "Gallyutsinatsiya" adabiy termin sifatida esa o'zbek adabiyotshunosligida, asosan, 70-yillarda N.Shodiev, H.Umurov, so'ngra Y.Solijonov ishlarida qayd etilib, u haqda nazariy fikrlar bildirilib va adabiy asarlar tahlilida shunday qahramonlarga misollar ko'rsatib berilgan"[6.169], – deya yozadi dots.M.Qo'chqorova. Chunonchi Fuzaylning bo'ynidagi bir tizma bo'rining tishi nimadan dalolat berishini, bu jondor keyingi hayotida yovuz kimsalarni eslatishini fahmlash bosqichiga o'tadi:

"Shu tush, shu voqeadan keyin chindan oromi butkul buzildi.

Shu tush shu voqeaga ulangan yana ham taajjubli edi...

O'sha erta, Fuzaylni tilga kiritolmagani bo'ismi, ta'biri topilishi mahol tush ta'siridanmi, hovlidan chiqqanda Saidbek Umar qizg'in kechinmalar iskanjasida bot-bot hapqirardi. Qiziqqki, u, yarim yo'lda, tushini ham, o'g'li nedir havas bilan bo'yniga taqvolgan matohni ham eslashdan cho'chiyotganini payqadi. Yana qiziqki, allaqayerdan tasodifan paydo bo'lib qolgan o'sha matoh ko'ksida qadimdan (vo ajab-o, qadimdan-a!?) qanaqadir yamoq borligiga ishora qilarmidi-ey."[1.7-8] Mana shu lavhadan ham his qilish mumkinki, roman kompozitsiyasidagi psixo-falsafiy mantiq qahramoning tabiatiga singib, uning keyingi kechmishlariga doyalik qilayotganidan shahodat beradi. Badiiy adabiyotda kompozitsiya va poetik uslub jipsligi qahramon o'y-xayollari hamda syujet qismlaridagi o'ziga xoslikni kuchli pafos bilan payvandlanishiga xizmat qiladi. Akademik M.Qo'shjonov: "Asar kompozitsiyasi – badiiy ijodning jiddiy yondashishni talab qiladigan muhim nazariy masalalaridan biridir. Inson o'z ijodiy faoliyatining barcha sohasida kompozitsiya to'g'risidagi muayyan prinsiplarga amal qilishi ham bejiz emas... Estetik tafakkurda mavjud bo'lgan tajriba va fikrlarni hisobga olgan holda kompozitsiyani shunday ta'riflansa bo'lar edi: Kompozitsiya – asarda ijodkor diqqat markazining yaqqolliigi, badiiy g'oyaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo'yilishi va ularning tasvir me'yori va maqsadga muvofiqligidir".[7.395] Bir-biriga mantiqan bog'langan katta-kichik jumlar roman markazidagi yozuvchi badiiy to'qimalarining o'ziga xos tabiatini idroklashga keng yo'l ochsa, Saidbek Umar taqdirining og'riqli nuqtalariga qadar bosib o'tiladigan yo'l inqilobini chamalashga imkon beradi. Shu ma'noda, fikr yuritganda Alisher Navoiyning "Liston ut-tayr" asaridagi mavjud qoliplash modusini tahlil qilishimizda ko'p narsalar o'z-o'zidan ayonlashadi.

"Shu o'rinda haqli ravishda "Liston ut-tayr" markazida turgan zokir kim unda, degan savol tug'iladi. Ushbu savolga hech ikkilanmasdan u asar muallifi – zikr istig'roqining

eng tubini makon tutgan Navoiy, deb javob beramiz. Chunki bunday xos holatni badiiy ifodalash uchun uni yashab o'tmoq shart.. Navoiyninng o'zi bu xususda:

*Voy ul bedilg'akim, qolgay tirik dildorsiz,*

*Bir iyosiz it bo'lib erdi Navoiy Yorsiz,*

*Etmagil, yo Rabki, hargiz bandi Sultondin judo...*

deb yozgan edi. Demak, tom ma'noda subektiv holatni ifoda etgan buyuk asar "Lison ut-tayr" mohiyatida turuvchi zokir, matn ostiga o'zini mukammal darajada yashirgan bo'lsa ham (naqshbandiylik tariqatining odobi, qonuniyayati hisoblanadi), dostonning markaziy obrazidir. Zokir obrazi asosida esa Navoiyninng o'zi turadi".[4.118-119] Mana shu manbaga tayanadigan bo'lsaak, romandagi Saidbek Umarning yozgulikni yalov qilgani, tush va o'ng aro kechayotgan umrining ziddiyatli tus olgani, raqiblaru dushmanlar qanot yozib uning ruhiy parvozigaga monelik qilayotganini – ramziy shtrixlarning naqadar mantiq va falsafa bilan yo'g'rilayotgani teran his qiladi. Chunki jaholatga botgan va uni yonida turgan ShAYTON obrazi Asad Dilmurodning ko'pgina asarlarida turli ranglarda ko'rinish beradi. Bo'rining tirnog'i ham Shayton malaylarining bir ko'rinishi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Badiiy uslub hamisha ikki muamoni hal qiluvchi asosiy fragmentlardan biri sanaladi. Ya'ni tashqi olam faktorlari bilan ichki olam ehtiyojlarini muqoyasa qilishda – uslub individuallikka evriladi. Yozuvchi hikoya qilish manerasini ham yangilashga intilib yashaydi. Shu ma'noda, Asad Dilmurod G'arb adabiy tafakkurining misli ko'rilmagan tasvir elementlarini sintezlay olgan yozuvchi sifatida "Fano dashtidagi qush" asarini yozish orqali shuhrat qozondi. Insonning fenomeni va borliq haqidagi ijtimoiy munosabatlar tig'izligi ijodkorga misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Shu ma'noda, ijod olami serqirralashib, mifopoetik tafakkur tig'izlashuviga keng sharoit yaratishga hozirlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Asad Dilmurod. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T: "Sharq". 2012. –B.7
2. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori. –T: "Yangi asr avlodi". 2019. –B.153.
3. Erix Fromm. Inson qalbi. –T: "O'zbekiston". 2016. –B.72-73.
4. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi". 2015. –B.118-119.
5. Karimov H. Kechagi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80-yillar) -T.:Yangi nashr. 2018. –B.143.
6. Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. –T.: "Muharrir". 2011. -B.169.
7. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq. 2019. –B.395.
8. Qur'onov D. Nazariy qaydlar. –T.: Akademnashr. –B.4.

9. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. –T: “Fan va texnologiyalar nashriyoti”.  
2013. –B. 94.3

